XALQ DEPUTATLARI BO‘STON TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 30-dekabr VII-16-172-1-19-K/25 Bo‘ston tumani

2026-yilda Bo‘ston tumani bo‘yicha qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun jismoniy va yuridik shaxslar bo‘yicha mutlaq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlarni tasdiqlash haqida

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 429- va 437-moddalari va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-dekabrdagi “Resurs soliqlari va mol-mulk solig‘ini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-6121-son Farmonining 1-bandiga muvofiq, Bo‘ston tumani iqtisodiyot va moliya bo‘limi hamda tuman soliq inspeksiyasining “Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun jismoniy va yuridik shaxslar bo‘yicha mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar” bo‘yicha kiritgan takliflarini muhokama etib, xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Bo‘ston tumani iqtisodiyot va moliya bo‘limi hamda tuman soliq inspeksiyasining “Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun jismoniy va yuridik shaxslar bo‘yicha mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar” bo‘yicha kiritgan takliflari ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Bo‘ston tumani iqtisodiyot va moliya bo‘limi hamda tuman soliq inspeksiyasining 2025-yil 4-dekabrdagi 16-05088-sonli xatida quyidagilar:

- yer solig‘ining amaldagi soliq stavkalari 2026-yilda 1,10 baravarga indeksasiya qilinishi kutilayotganligi;

- Bo‘ston tumani uchun qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar bo‘yicha yuridik shaxslarga 1 gektar uchun 31 460.0 ming so‘m va jismoniy shaxslarga 1 kv.m uchun 303,1 so‘m bazaviy soliq stavkasi belgilanishi ko‘zda tutilganligi;

- kelgusi yil bazaviy soliq stavkasiga nisbatan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar qo‘llashda keyingi yil mahalliy budjet daromadlari prognozidan kelib chiqish bo‘yicha tavsiyalari ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. “Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun jismoniy va yuridik shaxslar bo‘yicha mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar” miqdorlarini belgilash bo‘yicha tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi hamda tuman soliq inspeksiyasining taklifi ma’qullansin.

4. 2026-yil uchun Bo‘ston tumani hududida qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar miqdorlari yuridik shaxslar uchun 1-ilovaga, jismoniy shaxslar uchun 2-ilovaga, yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq bo‘yicha mutlaq miqdorda belgilangan eng kam qiymatga nisbatan belgilangan kamaytiruvchi koeffitsiyentlar miqdori 3-ilovaga, mol-mulkni ijaraga beruvchi jismoniy va yuridik shaxslar uchun belgilangan ijara to‘lovining eng kam stavkalari 4-ilovaga, jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallagan yerlardan tashqari) belgilangan bazaviy soliq stavkalari 5-ilovaga, yer qaridan foydalanilganlik uchun soliq stavkasi 6-ilovaga hamda suv solig‘i stavkasi 7-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, soliq idoralariga jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i (yakka tartibdagi tadbirkorlardan tashqari) summasi 2026-yil uchun hisoblangan soliq summasining 1,3 baravaridan oshmasligi lozimligi;

xalq deputatlari tuman Kengashi tomonidan belgilangan yer solig‘i stavkalariga qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun, ularning hududlarida joylashgan daha, massiv, mahalla, ko‘cha kesimida 0.7 dan 3.0 gacha kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlarni kiritish huquqi berilganligi alohida ko‘rsatib o‘tilsin.

5. Xalq deputatlari Bo‘ston tumani Kengashi 1 hafta muddatda ushbu qarorning 1-2-ilovalariga asosan belgilangan soliq stavkalariga hududlarida joylashgan daha, massiv, mahalla, ko‘cha kesimida 0.7 dan 3.0 gacha kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlarni qo‘llash bo‘yicha muhokamalar o‘tkazib, joriy yilning 5-yanvarga qadar muhokamalar yakuni bo‘yicha tasdiqlangan soliq stavkalarni joylardagi soliq organlariga taqdim etsin.

Bunda, xalq deputatlari tuman Kengashiga ushbu qarorning 1-2-ilovalariga asosan belgilangan soliq stavkalariga nisbatan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlarni kelgusi yil uchun mahalliy budjet daromadlari prognozidan, tumanda iqtisodiy faollikning tiklanganligi hamda aholi va tadbirkorlarning daromadlari barqarorlashganligidan kelib chiqqan holda qo‘llashlari tavsiya etilsin.

6. Bo‘ston tumani iqtisodiyot va moliya bo‘limi (R.Ashur-oxunov), tuman soliq inspeksiyasi (A.Shamsutdinov) yer solig‘i bo‘yicha tasdiqlangan soliq stavkalarini 10-yanvarga qadar barcha soliq to‘lovchilarga soliq to‘lovchining shaxsiy kabineti orqali etkazilishini ta’minlasin.

7. Tuman hokimligi matbuot xizmati (M.Ochildinova) mazkur qarorni tuman hokimligining ijtimoyi tarmog‘ida e’lon qilinishi hamda rasmiy veb-saytiga joylashtirilishi tavsiya etilsin.

8. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (Sh.Mamarizayev) zimmasiga yuklatilsin.

9. Mazkur qaror rasmiy e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

Kengash raisi **NOSIROVA SANABARXON ABDINABIYEVNA**

Xalq deputatlari Bo‘ston tumani Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-16-172-1-19-K/25 -son qaroriga
1-ilova

2026-yil uchun Bo‘ston tumani bo‘yicha yuridik shaxslarning qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlari uchun yer solig‘ining bazaviy stavkasiga nisbatan xalq deputatlari Bo‘ston tumani Kengashi tomonidan belgilangan koeffisiyentlarga muvofiq qo‘llanilishi lozim bo‘lgan soliq stavkalari

№	Hududlar nomi	Koeffitsiyent miqdori	1 gektar uchun bazaviy soliq stavkasi (so‘mda)*
1	Obod MFY	0,95	29 887,0
2	G‘olib MFY	0,85	26 741,0
3	Mustaqillik 15 yilligi MFY	0,90	28 314,0
4	Ko‘xinur MFY	0,90	28 314,0
5	Yangi qishloq MFY	0,90	28 314,0
6	Yangi obod MFY	0,90	28 314,0
7	Maorif MFY	0,95	29 887,0
8	Guzar MFY	0,95	29 887,0
9	Madaniyat MFY	0,95	29 887,0
10	Do‘stlik MFY	0,95	29 887,0
11	Sarbon MFY	0,75	23 595,0
12	Yakka tol MFY	0,80	25 168,0
13	Pillakor MFY	0,85	26 741,0
14	Bo‘ston MFY	0,75	23 595,0
15	Davlatobod MFY	0,80	25 168,0
16	Sariq jo‘ga MFY	0,85	26 741,0
17	Navro‘z MFY	0,80	25 168,0
18	Gulshan MFY	0,80	25 168,0
19	Bog‘i eram MFY	0,80	25 168,0
20	Dexqonobod MFY	0,85	26 741,0
21	Nurafshon MFY	0,85	26 741,0
22	Mexnatobod MFY	0,85	26 741,0
23	Xovos MFY	0,85	26 741,0
24	Guliston MFY	0,85	26 741,0
25	Xalqobod MFY	0,85	26 741,0

** O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 437-moddasiga muvofiq, Xalq deputatlari Andijon viloyati Kengashining 2025-yil 26-dekabrdagi VII-15-297-1-0-K/25-sonli qarori bilan Bo‘ston tumanida yuridik shaxslar uchun qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar bo‘yicha yer solig‘ining bazaviy stavkasi 1 gektar uchun 31,4 mln.so‘m miqdori belgilangan. Qo‘llanilishi lozim bo‘lgan soliq summasi bazaviy stavkani koeffisiyentga ko‘paytirish orqali aniqlanadi.*

Soliq kodeksiga muvofiq bazaviy stavka (48400*0,65) 31 460,0

Xalq deputatlari Bo‘ston tumani Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-16-172-1-19-K/25 -son qaroriga
2-ilova

2026-yil uchun Bo‘ston tumani bo‘yicha jismoniy shaxslarning qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlari uchun yer solig‘ining bazaviy stavkasiga nisbatan xalq deputatlari Bo‘ston tumani Kengashi tomonidan belgilangan koeffisiyentlarga muvofiq qo‘llanilishi lozim bo‘lgan soliq stavkalari

№	Hududlar nomi	Koeffitsiyent miqdori (0,5 gacha kamaytiruvchi koeffitsiyent)	1 kv. metr uchun mutlaq miqdorda belgilangan eng kam qiymat (so‘mda)
1	Obod MFY	0,95	287,9
2	G‘olib MFY	0,85	257,6
3	Mustaqillik 15 yilligi MFY	0,90	272,8
4	Ko‘xinur MFY	0,90	272,8
5	Yangi qishloq MFY	0,90	272,8
6	Yangi obod MFY	0,90	272,8
7	Maorif MFY	0,85	257,6
8	Guzar MFY	0,95	287,9
9	Madaniyat MFY	0,95	287,9
10	Do‘stlik MFY	0,95	287,9
11	Sarbon MFY	0,75	227,3
12	Yakka tol MFY	0,80	242,5
13	Pillakor MFY	0,95	287,9
14	Bo‘ston MFY	0,75	227,3
15	Davlatobod MFY	0,80	242,5
16	Sariq jo‘ga MFY	0,85	257,6
17	Navro‘z MFY	0,80	242,5
18	Gulshan MFY	0,80	242,5
19	Bog‘i eram MFY	0,80	242,5
20	Dexqonobod MFY	0,85	257,6
21	Nurafshon MFY	0,85	257,6
22	Mexnatobod MFY	0,85	257,6
23	Xovos MFY	0,85	257,6
24	Guliston MFY	0,85	257,6
25	Xalqobod MFY	0,85	257,6

** O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 437-moddasiga muvofiq, Xalq deputatlari Andijon viloyati Kengashining 2025-yil 26-dekabrdagi VII-15-297-1-0-K/25-sonli qarori bilan Bo‘ston tumanida jismoniy shaxslar uchun qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar bo‘yicha yer solig‘ining bazaviy stavkasi 1 kv.m uchun 303,1 so‘m miqdori belgilangan. Qo‘llanilishi lozim bo‘lgan soliq summasi bazaviy stavkani koeffisiyentga ko‘paytirish orqali aniqlanadi.*

Soliq kodeksiga muvofiq bazaviy stavka (433*0,70) 303,1

Xalq deputatlari Bo‘ston tumani Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-16-172-1-19-K/25 -son qaroriga
3-ilova

Bo‘ston tumani yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq bo‘yicha 2026-yil uchun mutlaq miqdorda belgilangan eng kam qiymatga nisbatan belgilangan kamaytiruvchi koeffitsiyentlar miqdori

№	Hududlar nomi	Koeffitsiyent miqdori (0,5 gacha kamaytiruvchi koeffitsiyent)	1 kv. metr uchun mutlaq miqdorda belgilangan eng kam qiymat (so‘mda)
1.	Obod MFY	1,0	975000
2.	G‘olib MFY	1,0	975000
3.	Mustaqillik 15 yilligi MFY	1,0	975000
4.	Ko‘xinur MFY	1,0	975000
5.	Yangi qishloq MFY	1,0	975000
6.	Yangi obod MFY	1,0	975000
7.	Maorif MFY	1,0	975000
8.	Guzar MFY	1,0	975000
9.	Madaniyat MFY	1,0	975000
10.	Do‘stlik MFY	1,0	975000
11.	Sarbon MFY	1,0	975000
12.	Yakka tol MFY	1,0	975000
13.	Pillakor MFY	1,0	975000
14.	Bo‘ston MFY	1,0	975000
15.	Davlatobod MFY	1,0	975000
16	Sariq jo‘ga MFY	1,0	975000
17	Navro‘z MFY	1,0	975000
18	Gulshan MFY	1,0	975000
19	Bog‘i eram MFY	1,0	975000
20	Dexqonobod MFY	1,0	975000
21	Nurafshon MFY	1,0	975000
22	Mexnatobod MFY	1,0	975000
23	Xovos MFY	1,0	975000
24	Guliston MFY	1,0	975000
25	Xalqobod MFY	1,0	975000

[1] *Yirik soliq to 'lovchilardan tashqari*

[1] *O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 412-moddasiga muvofiq, ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organlarda ro 'yxatdan o 'tkazilishi lozim bo 'lgan binolar va inshootlar uchun soliq bazasi 1 kv.m uchun mutlaq miqdorda belgilangan eng kam qiymat qishloq joylarda 1 200.0 ming so'm miqdori belgilangan.*

Qo 'llanilishi lozim bo 'lgan soliq summasi mutlaq miqdorni koeffitsiyentga ko ‘paytirish orqali aniqlanadi.

Xalq deputatlari Bo‘ston tumani Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-16-172-1-19-K/25 -son qaroriga
4-ilova

2026-yil uchun mol-mulkni ijaraga beruvchi jismoniy va yuridik shaxslar uchun belgilangan ijara to‘lovining eng kam stavkalari

№	Hududlar nomi	Koeffitsiyent miqdori	Binolar (umumiy maydonning 1 kv.metri uchun) so‘mda	
			turar joy	noturar joy
1.	Obod MFY	1	5500	11000
2.	G‘olib MFY	1	5500	11000
3.	Mustaqillik 15 yilligi MFY	1	5500	11000
4.	Ko‘xinur MFY	1	5500	11000
5.	Yangi qishloq MFY	1	5500	11000
6.	Yangi obod MFY	1	5500	11000
7.	Maorif MFY	1	5500	11000
8.	Guzar MFY	1	5500	11000
9.	Madaniyat MFY	1	5500	11000
10.	Do‘stlik MFY	1	5500	11000
11.	Sarbon MFY	1	5500	11000
12.	Yakka tol MFY	1	5500	11000
13.	Pillakor MFY	1	5500	11000
14.	Bo‘ston MFY	1	5500	11000
15.	Davlatobod MFY	1	5500	11000
16	Sariq jo‘ga MFY	1	5500	11000
17	Navro‘z MFY	1	5500	11000
18	Gulshan MFY	1	5500	11000
19	Bog‘i eram MFY	1	5500	11000
20	Dexqonobod MFY	1	5500	11000
21	Nurafshon MFY	1	5500	11000
22	Mexnatobod MFY	1	5500	11000
23	Xovos MFY	1	5500	11000
24	Guliston MFY	1	5500	11000
25	Xalqobod MFY	1	5500	11000

Izoh: *Mazkur stavkalar jismoniy va yuridik shaxslarning mol-mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlariga soliq solish maqsadida qo‘llaniladi hamda ko‘chmas mulkdan tekin foydalanish shartnomalariga (yaqin qarindoshlar o‘rtasidagi tuzilgan shartnomalar bundan mustasno) tatbiq etiladi.*

Xalq deputatlari Bo‘ston tumani Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-16-172-1-19-K/25 -son qaroriga
5-ilova

2026-yil uchun jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallagan yerlardan tashqari) mutloq miqdorda 1 kv.m. uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar

T/r	Hudud nomi	koeffitsiyent (0,7 dan 3 gacha)	1 кv.m uchun soliq stavkasi (so‘mda)
1	Obod MFY	0,95	287,9
2	G‘olib MFY	0,85	257,6
3	Mustaqillik 15 yilligi MFY	0,90	272,8
4	Ko‘xinur MFY	0,90	272,8
5	Yangi qishloq MFY	0,90	272,8
6	Yangi obod MFY	0,90	272,8
7	Maorif MFY	0,95	287,9
8	Guzar MFY	0,95	287,9
9	Madaniyat MFY	0,95	287,9
10	Do‘stlik MFY	0,95	287,9
11	Sarbon MFY	0,75	227,3
12	Yakka tol MFY	0,80	242,5
13	Pillakor MFY	0,85	257,6
14	Bo‘ston MFY	0,85	257,6
15	Davlatobod MFY	0,80	242,5
16	Sariq jo‘ga MFY	0,85	257,6
17	Navro‘z MFY	0,80	242,5
18	Gulshan MFY	0,80	242,5
19	Bog‘i eram MFY	0,80	242,5
20	Dexqonobod MFY	0,85	257,6
21	Nurafshon MFY	0,85	257,6
22	Mexnatobod MFY	0,85	257,6
23	Xovos MFY	0,85	257,6
24	Guliston MFY	0,85	257,6
25	Xalqobod MFY	0,85	257,6

Izoh: *Shaharlar va tumanlar Kengashlari tomonidan yuridik shaxslar uchun yer solig‘i stavkasini mahalla fuqarolar yig‘inlari kesimida tuman (shahar) markazlari uzoq-yaqinligiga qarab, 0,7-3,0 kamaytiruvchi va ko‘paytiruvchi koeffitsyentlarni belgilash huquqiga ega.*

Xalq deputatlari Bo‘ston tumani Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-16-172-1-19-K/25 -son qaroriga
6-ilova

2026-yil uchun “Yer qaridan foydalanilganlik uchun soliq” stavkasi
(tuman bo‘yicha)

T/r	Mahsulot nomi	Koeffitsiyent miqdori	Summasi (so‘mda)
1	Arralanadigan xarsangtosh, xarsangtosh, ohaktosh-chig‘anoq, ohaktosh (sement va ohak ishlab chiqarish uchun mo‘ljallangan ohaktoshdan tashqari), dolomitlar, qurilishda ishlatiladigan mayda toshlar, bazalt, granodioritlar, granosiyenitlar, siyenitlar, porfiritlar, diabaz-porfiritlar, gabbro, slanes jinslari, karbonat xom ashyosi, travertin	1,30	800.8
2	Tabiiy bezaktoshdan bloklar	1,30	13000
3	Marmar	1,30	26000
4	Granitlar	1,30	39000
5	Gips toshi, gips va angidrid, ganch	1,30	20735
6	G‘isht-cherepisa xom ashyosi, lyosslar va lyossimon jinslar	1,30	600.6
7	Qum-shag‘al aralashmasi qurilish qumi, qumtoshlar	1,30	6500

Xalq deputatlari Bo‘ston tumani Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-16-172-1-19-K/25 -son qaroriga
7-ilova

2026-yil uchun “Suv solig‘i” stavkasi
(tuman bo‘yicha)

T/r	**Mahsulot nomi**	**Er usti foydalanilganlik uchun koeffitsiyent miqdori**	**Summasi** (so‘mda)	**Er osti foydalanilganlik uchun koeffitsiyent miqdori**	**Summasi** (so‘mda)
1	Iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi korxonalar, shuningdek YaTTlar	**1.20**	8 40	**1.20**	1 020
2	Sanoat korxonalari	**1.20**	8 40	**1.20**	1 020
3	Avtotransport vositalarini yuvish	**1.20**	90 000	**1.20**	18 000
4	Alkogolsiz va alkogolli ichimliklar ishlab chiqarish, (pivo va vinodan tashqari)	**1.20**	45 600	**1.20**	45 600